



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 23 yil « 9 » avgust № 349

Toshkent sh.

Toshkent metropolitenining yer usti yo'li bekatlariga nom berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mahalliy aholi va jamoatchilikning fikrlari, takliflarini inobatga olgan holda hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasining xulosasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. Toshkent metropoliteni "**O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi**" yer usti metro halqa yo'lining "**Do'stlik – Qo'yliq**" yo'nalishi 1-14 bekatlariga, "**Chilonzor**" yo'lining "**Olmazor – Sergeli**" yo'nalishi 1-5 bekatlariga (jami 19 ta bekat) ilovadagi ro'yxat asosida nom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Toshkent shahar hokimligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, "Toshkent metropoliteni" DUK bilan birgalikda **bir oy muddatda:**

Toshkent metropoliteni "**O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi**" yer usti metro halqa yo'lining **14 ta**, "**Chilonzor**" yo'lining **5 ta** bekatlari nomlarining tasdiqlanishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha zarur choralarni ko'rsin;

Toshkent metropolitenining barcha bekatlarida o'rnatilgan peshlavhalar va axborot ko'rsatkichlaridagi yozuvlarning davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ommaviy axborot vositalarida ushbu qarorning mazmun-mohiyati keng yoritilishini tashkil etsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov va O'zbekiston Respublikasi transport vaziri I.R. Mahkamov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri



A. Aripov



Vazirlar Mahkamasining
2023-yil "9" avgustdagi 349-son qaroriga
ilova

**Toshkent metropoliteni yer usti yo'li bekatlari nomlari
RO'YXATI**

T/r	Bekatlari	Bekat nomi
I. "Do'stlik-Qo'yliq" yer usti metro yo'nalishi		
1.	1-bekat	Texnopark
2.	2-bekat	Yashnobod
3.	3-bekat	Tuzel
4.	4-bekat	Olmos
5.	5-bekat	Rohat
6.	6-bekat	Yangiobod
7.	7-bekat	Qo'yliq
8.	8-bekat	Matonat
9.	9-bekat	Qiyot
10.	10-bekat	Tolariq
11.	11-bekat	Xonobod
12.	12-bekat	Quruvchilar
13.	13-bekat	Turon
14.	14-bekat	Qipchoq
II. "Olmazor-Sergeli" yer usti metro yo'nalishi		
15.	1-bekat	Choshtepa
16.	2-bekat	O'zgarish
17.	3-bekat	Sergeli
18.	4-bekat	Yangihayot
19.	5-bekat	Chinor